

ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР  
ВА АДАБИЁТШУНОСЛИК  
МУАММОЛАРИ

**МАТЕРИАЛЛАР  
ТЎПЛАМИ**

**XII**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА  
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ТИЛНИНГ ЛЕКСИК-СЕМАНТИК ТИЗИМИ,  
КЎСИЙ ТИПОЛОГИК ИЗЛАНИШЛАР ВА  
АДАБИЁТШУНОСЛИК МУАММОЛАРИ  
МАТЕРИАЛЛАР Тўплами**

**XII**

Бухоро  
"Дурдона" нашриёти  
2021

**INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA NOANIQLIK MA`NOSINING  
SIFATLAR ORQALI IFODALANISHI**  
**Gadoyeva M.I. (BuxDU, dotsent), Mehmonova Yulduz. BuxDU 2 bosqich  
magistrant.**

Mustaqil so`z turkumi sifatida sifat ham noaniqlikni ifodalaydi. Sifat o`zining bajaradigan vazifasi va xarakteriga ko`ra otlarning boshqa turi vazifasini bajarishi kerak. Bu vazifa ikkita usul orqali amalga oshiriladi:

1) noaniqlik qo`shimcha birliklarsiz so`z o`zagining o`zi orqali beriladi;

2) noaniqlik so`z o`zagiga qo`shiladigan maxsus old qo`shimcha morfemalar birikmalari orqali ifodalanadi, bu holatda affiksalar noaniqlik markerlari vazifasini bajaradi;

3) noaniqlik sifatlarning boshqa so`zlar bilan birikishi usuli orqali beriladi:

a) nominalizatsiyasiz;

b) nominalizatsiyali qizilga o`xshash va hokazo.

Sifat bu so`z turkumi bo`lib u predmet belgisini protsessual emasligini ifodalaydi va bu ma`noni rod, son va kelishikning so`zni o`zgartiruvchi morfologik kategoriyalarida ifodalaydi. Sifat qiyoslash darajasining morfologik kategoriyasiga ega va to`liq va qisqa formalarda ishlatiladi (29, 540).

Zamonaviy ingliz tilida bir necha belgilarga asoslangan holda miqdorni ifodalovchi sifatlar guruhiga - much, many, few, little larni kiritish mumkin.

Morfologik jihatdan ular sifatlarga yaqin, shuningdek qiyoslash darajasiga ham ega. Boshqa xususiyatlariga ko`ra esa ular songa, shuningdek olmoshlarga ham yaqindir (23, 112).

For many a long day (BARS). He has very little knowledge of the subject (BARS). Such occasions are few (BARS). Much good may it do you (BARS).

Zamonaviy o'zbek tilida noaniqlik sifat intensivligining past darajasi hisoblangan - sal, bir oz, sal-pal, salgina va boshqalar orqali yasaladi:

U maktabda plastilindan uychalar, ot, eshak, chuvalchang yasashni sal-pal o'rganib olgandi (CHO`qqilar chorlaydi, 29).

Bola bir oz hayron bo`lib, ikkilanib turdi-da, so`ng lablari issiq tegayotgan mammalami ikki qo`llab changallaganicha qiziqish bilan ema boshlar, lekin sut chiqmasdi (CHo`qqilar chorlaydi, 45).

– Meniyam sal o`ylang, - davom etdi Habiba bo`shashib, ... (CHO`qqilar chorlaydi, 15).

Tunggi g`alati voqeani aniq eslab, labining bir cheti bilan salgina ma`yus jilmayib qo`ydi (Asqad Muxtor, CHinor, 230).

Sifat intensivligining past darajasini ko`rsatuvchi sifatlar semantikasida noaniqlik tushunchasining ma`noviy varianti haqida so`z yuritilgan.

Noaniqlik suffiks yoki prefiks orqali ifodalanishi mumkin. Noaniqlikni ifodalovchi suffiks morfemalarga quyidagilar kiradi: -ish, -like, -ly va boshqalar. Bunday suffiks morfemalar o`xshashlik asosida noaniqlik belgisini ifodalaydi: reddish, blackish, yellowish, greenish, whitish, godlike, ghashly:

Gerhardt ran his hand through his reddish brown hair distractedly (T.Dreiser, Jennie Gerhardt, 75).

You don't seem to realize how peculiar you are, your lot. Going around pretending what ghashly failures you are (J.Fowles, Daniel Martin, 281-282).

Ular o'zbek tilidagi analogik suffikslar bilan mos keladi: -ish, - imtir; "ko`kish, ko`kimitir"; -simon: "odamsimon"; -day, - dek: "tepilgandek, kengayganday", va hokazo.

Ma`sud daryoning tiniq ko`kish sathidagi jivir-jivir mavjlarga tikildi (Hamid G`ulom, Mangulik, 209).

Qoramtir qizg`ish sochlari yostiqa yoyilib, to`zib yotibdi (Hamid G`ulom, Mangulik, 245). Bu so`z bilan yana o`lganning ustiga tepilgandek bo`ldim (A.Qodiriy, O`tgan kunlar, 190).

Sen ham odamsimon gapimga tushunib, bu to`g`rida aqling etkancha zehningni yugurtirgin ... (A.Qodiriy, O`tgan kunlar, 152).

Ba`zi bir holatlarda sifat anglatgan ma`no quyidagi affiks orqali ifodalanadi: -msiq: "achchimsiq".

“-roq” affiksi noaniqlikni ifodalaydi. “- roq” affiksini olgan sifatlar, ravishlar, ravishdoshlar kuchaytirish va kichraytirish ma`nolarini ifodalagan holda, ba`zida esa bu affiksni olmagan boshqa so`zlarga tegishli bo`lgan noaniqlik va mavhumlik belgilarini ifodalaydi (51, 160-164).

U ko`proq yurdi. U tezroq yurdi.

“ko`p, oz” so`zlari - roq suffiksi yordamisiz belgini ko`rsatadi va noaniqlik ma`nosini ifodalaydi.

“ko`proq, tezroq” so`zlari – roq affiksi yordamida belgini ifodalaydi va noaniqlik belgisi haqida xabar beradi.

- roq affiksi sifatning to`la emasligi yoki uning yumshatilishi va kichraytirilishini ko`rsatgan holda sub`ektiv bahoni ifodalaydi:

Masalan, sovuqroq, iflosroq, keyinroq.

Rangni bildiruvchi sifatlarda noaniqlik ma`nosini qachonki ular sifat intensivligining past darajasini ifodalagan vaqtida kuzatiladi.

Masalan: “qoramtir, qizg`ish, ko`kish, sarg`ish, oqish”.

Lekin havo bo`zrayib turar, hovli ko`lmaklarida qoramtir bulutlar ivigan devor, ho`l darxtlar aks etadi (P.Qodirov, Uch ildiz, 62).

Salima o`ylanib, tuflisining uchi bilan qizg`ish qumni chiza boshladi (Hamid G`ulom, Mangulik, 210).

Chilonzordagi sarg`ish, qizg`ish, kulrang, oqish yirik panelli baland uylarning ko`lankalari tobora uzayib borayotgan payt (O`Usmonov, Girdob, 5).

Oq – qizg`ish qipiq havoda dimoqni qitiqlovchi nimtatir nordon is qoldirib erga to`kildi (S.Anorboev, Qissalar, 206).

Yuqorida keltirilgan misollarda sifatlar predmetning noaniq, taxminiy belgisini ifodalaydi.

Sifatlarning forma yasovchi bir qator affikslari noaniqlik ma`nosini ifodalaydi.

Zamonaviy o`zbek tilida sifatlarning eksplitsit suffikslariga quyidagilar kiradi: -ish, - g`ish, - (i)tir, - g`imtir. Bu suffikslar rangni, sifatning kichraytirish, kamaytirish darajalarini ifodalovchi sifatlardan yasaladi.

Bu suffikslar sinonimik bo`lib ular hammasi sifatga qo`shilgan holda rangni ifodalaydi va noaniqlik ma`nosini (belgining kuchsizlanishi) bildirgan sifatlarni yasaydi.

Ingliz tilida suffikslarning bu guruhiga –ish suffiksi kiradi.

-ish suffiksi sifatning to`la emasligini ifodalovchi shaklini yasaydi va noaniqlik belgisini beradi.

-ish suffiksi sifat yoki belgining kuchsizlanishini anglatuvchi sifatdan sifat yasaydi va noaniqlik ma`nosini ifodalaydi:

greenish	–	ko`kish
reddish	–	qizg`ish
whitish	–	oqish
yellowish	–	sarg`ish
blackish	–	qoramtir
coldish	–	sovuqroq
warmish	–	issiqroq
tallish	–	uzunroq

Bunday ma`nodagi -ish suffiksi belgini, ichki va tashqi sifat, xususiyatning bahosini va predmetlarning o`ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi sifatning asoslari bilan mos keladi (44, 101-103).

Zamonaviy o`zbek tilidagi – roq suffiksi sifatning to`la bo`lmagan me`yorini ifodalash uchun xizmat qiladi. (53, 163)

- roq affiks predmet belgilarining noaniqlik ma'nosini ham ifodalaydi. Masalan: "eskiroq, ko'karibroq, issiqroq" va hokazo.

- roq affiksi ravishlar va sifatlar tarkibida sifatning to'la emasligini ifodalaydi va ularga noaniqlik belgisini beradi: avvalroq, sekinroq, keyinroq, tezroq, ko'proq, zo'rroq, kichikroq, dadilroq, beparvoroq, pastroq va hokazo.

Bunday affiks zamonaviy ingliz tilidagi "-er" affiksi bilan mos keladi.

tighter	–	semizroq
longer	–	uzunroq
later	–	kechroq
older	–	qariroq
smaller	–	kichikroq
earlier	–	ertaroq

Otlardan, sifatdoshlardan yasalgan sifatlar "– simon" affiksi yordamida noaniqlik ma'nosini ifodalashi mumkin: "Kajavasimon, olmossimon, qoqisimon, tumansimon, o'rdaksimon, tulkisimon" va hokazo.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Есперсон О. Филосовская грамматика, переведенная с английского языка. М.: Изд.иностр.лит., 1958, - 404 б.
2. Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. – Перевод с англ. М.: Изд.иностр. лит., 1959, - 486 б.
3. Мешанинов И.И. Типологическое сопоставление и типологическая тизим. – Филологические науки. 1958, № 3.
4. Колшанский Г.В. Проблема универсалий языка. Л., Наука, 1972, - 216 б.
5. Мешанинов И.И. Типологическое сопоставление и типологическая тизим. – Филологические науки. 1958, № 3.

### **ANALYSIS OF BODY PART IDIOMS IN IN THE SYSTEM OF NON-RELATED LANGUAGES**

**Gadoyeva M.I. (docent of the English linguistics department),  
Narzullaeva F.O. (English teacher of the department of translation studies  
and English education of the Bukhara State University),  
Tuymurodova Ruzsora (1TNA-20 guruhi talabasi)**

In order to master language, learning idioms is an important way. They are a typical component of English, and spoken English in particular, and are used more and more widely in everyday discussions. The image of human body parts are enclosed a lot of idioms.

English and Uzbek are two different languages with their own cultural backgrounds. Besides, language and culture are closely related. An understanding of common idioms will increase comprehension and make conversations more natural in both non-related languages.

However, while learning process, idioms present a problem to language learners. They find it hard to understand the meaning of idioms due to their

## МУНДАРИЖА

<a href="#">Rasulov Z.I.</a> Why Study Linguistics for Language Teachers?.....	3
<a href="#">Rasulov Z.I., M.M. Sharipov.</a> THE EFFECT OF THE MORPHOLOGICAL LEVEL OF ECONOMY ON LANGUAGE CHANGES .....	6
Gadoyeva M.I. PHRASEOLOGICAL UNITS.....	9
Gadoyeva M.I., Karimova F.I. INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA INSON TANA A`ZOLARI ISHTIROK ETGAN FRAZEOLOGIZMLARNING PRAGMATIK TAHLILI.....	11
Gadoyeva M.I., Mehmonova Yulduz. INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA NOANIQLIK MA`NOSINING SIFATLAR ORQALI IFODALANISHI .....	15
Gadoyeva M.I., Narzullaeva F.O., Tuymurodova R. ANALYSIS OF BODY PART IDIOMS IN IN THE SYSTEM OF NON-RELATED LANGUAGES..	18
Kobilova N.S. GENERAL NOTION OF THE PROBLEM OF VOICE IN ENGLISH GRAMMAR.....	21
M.I.Gadoyeva, Obloqulov Sh. INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDA NOANIQLIK MA`NOSINING YUKLAMALAR ORQALI IFODALANISHI	25
Ruziev Y.B., Aslonova N.M. MAJOR DIFFERENCES BETWEEN ENGLISH AND GERMAN GRAMMAR.....	27
Rahmatova M.M., Ismailova S.N. XXI ASR AMERIKA SHOIRALARINING SHE`RLARIDA IJTIMOY HAYOTNING GAVDALANISHI.....	31
Саидова М.Р., Эргашева Д.К. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕКСТОВ ПЕСЕН НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУППАХ .....	35
Шукурова М.А. ПРОБЛЕМАТИКА ТЕРМИНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	38
Шукурова М.А. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ И СИСТЕМАТИЗАЦИИ ЛЕКСИКИ ЭТИКИ.....	42
Наврзуова Н.Х. ФОНЕТИК ЎЗГАРИШЛИ СЎЗЛАРДА КОННОТАТИВ МАЪНОНИНГ ИФОДАЛАНИШИ .....	45
Khalibekova O.K. ANALYSIS OF ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS WITH FLORISTIC COMPONENTS. ....	49
Акромов I. THE CHARACTERISTICS OF THE APHORISTIC FUNCTION	52
Саидова Н. ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРИНИНГ ЛЕКСИК, СЕМАНТИК-ГРАММАТИК ВА УСЛУБИЙ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	54
Имамкулова С. ИНТЕНСИВЛИК КАТЕГОРИЯСИНИНГ КУЧЛИ, ЎРТА ВА КУЧСИЗ ДАРАЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ ТИЛ БИРЛИКЛАРИ..	58
Z.X.Saidova, THE IMPORTANCE OF MOODLE SYSTEM IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.....	63
Yadgarova Z.T. KONNATATIV MA`NOLARNING TOVUSH O`ZGARISHLARI VA TOVUSH TAKRORI BILAN HOSIL BO`LISH USULLARI .....	65
Niyazova Sh. USING SONGS IN TEACHING THE ENGLISH LANGUAGE .....	69